# Xalq so'zi

O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat

**2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 14-yanvar, № 9 (8904) Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## O'ZBEKISTON PREZIDENTINING BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIGA TASHRIFI BOSHLANDI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayonning taklifiga binoan 13-yanvar kuni rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.**



Abu-Dabi xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Birlashgan Arab Amirliklari vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi, ikki mamlakat davlat bayroqlari ko'tarildi.

Tashrif dasturiga muvofiq 14-yanvar kuni O'zbekiston Prezidenti "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" xalqaro sammitida ishtirok etadi.

BAAning yetakchi tashkilotlari, kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashuvlar ham rejalashtirilgan.

15-yanvar kuni oliy darajadagi muzokaralar bo'lib o'tadi.

**O'zA.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

### Nuqtai nazar

## GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI

### oqibatlarini birgalikda yengib o'tish eng asosiy masala

*Statistik ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston uglevodorod energiyasi – neft, gaz, ko'mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo'qotmoqda. Mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablag'ni talab qiladi. Buning o'rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali bo'lgan "yashil" energetikaga o'tish har tomonlama afzal. Zero, butun dunyo shu yo'lni tanlayapti.*

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlaridan birinchi bo'lib mazkur harakatga qo'shildi. Mohiyatan olib qaraganda, besh yil avval qabul qilingan "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi yurtimizning "yashil" taraqqiyot sari yuz burganini anglatadi. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va uglerod neytralligiga erishish iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda strategik vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur yo'nalishda Birlashgan Arab Amirliklarining iqlim o'zgarishiga qarshi kurash borasidagi global tashabbuslarini hamda "yashil" taraqqiyotga qo'shayotgan katta hissasini alohida qayd etish joiz. BAA tomonidan "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" xalqaro sammitining tashkil qilinishi fikrimizni tasdiqlaydi. 2023-yilning dekabrida ham BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasining (COP28) sammiti aynan shu yurtda o'tkazilgan edi.

→ 2

Fakt va raqamlar

### O'zbekiston va BAA:

### SAVDO-IQTISODIY VA INVESTITSIYAVIY HAMKORLIK TAHLILI

- 2017 – 2023-yillar davomida O'zbekistonning BAA bilan tovar ayirboshlash hajmi 115 milliondan (2017-y.) 626 mln. dollarga (2023-y.), ya'ni **5,4 barobar** o'sdi;
- o'tgan yilning 11 oyi yakunlariga ko'ra 2023-yilning shu davridagiga nisbatan O'zbekiston va BAA o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi **4,2 foiz**ga o'sdi va 591 million (2023-yilda – 567 mln.) dollarni tashkil etdi;
- 2023-yilda BAA O'zbekiston iqtisodiyotiga (sarmoyador mamlakatlar orasida investitsiyalar hajmi bo'yicha 3-o'rinda) 1,2 mlrd. dollar kiritdi. 2024-yilning birinchi yarmida BAAning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan investitsiyalari hajmi 592,2 mln. dollarga yetdi;
- o'tgan yil 1-dekabr holatiga ko'ra O'zbekistonda BAA sarmoyasi ishtirokidagi **337 ta** korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Umuman olganda, 2017 – 2023-yillar mobaynida BAAning O'zbekistonga kiritgan investitsiyalari hajmi **1 ,5 mlrd.** dollardan oshdi.

*Manba: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 33 YILLIGI HAMDA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN HARBIY XIZMATCHILAR VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RISIDA

Mamlakatimiz mudofaa qudratini oshirish, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini yuksaltirish, professional milliy armiyani shakllantirish, davlat xavfsizligi va chegaralarimiz daxlsizligini ta'minlashdagi katta xizmatlari, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, xalqimiz osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi ibratli faoliyati, sharafli va muqaddas burchini bajarishda mardlik va jasorat ko'rsatgani, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qo'shgan munosib hissasi uchun quyidagilar mukofotlansin:

### "Mardlik" ordeni bilan

**Dedaxonov Musoxon Alyorovich** – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

**Ismoilov Baxtiyor Axmadjonovich** – Farg'ona viloyati prokurori

**Rasulov Farrux Sadulloyevich** – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandiri

**Sayipov Bektosh Raximovich** – Qashqadaryo viloyati prokurori

**Toshqorayev Olim Eshmo'minovich** – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism bosh serjanti

**Umurzakov Sharof Kuchiyevich** – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi xizmat boshlig'ining o'rinbosari

**Egamberdiyev Muzaffar Eminovich** – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi direktori

**Egamyorov Farxodbek Abdumalikovich** – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandirining o'rinbosari – bo'lim boshlig'i

### "Do'stlik" ordeni bilan

**Pirmatov Alisher Ashurmatovich** – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi markaziy devoni boshqarma boshlig'i

### "Jasorat" medali bilan

**Akramov Abbosjon Axtam o'g'li** – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

**Irgashov Baxtiyor Erkinovich** – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi muhim ishlar bo'yicha katta tezkor vakili

**Isakov Alisher Raxmatullayevich** – Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi qutqaruv otryadi guruh qutqaruvchi-yo'riqchisi

**Muxitdinov Islombek Zafarbek o'g'li** – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism otryad komandiri

**Suyarqulov Ravshanbek Suyarqul o'g'li** – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism vzvod komandirining o'rinbosari

**Toshmatov Zafarbek Anvarovich** – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism eskadrilya komandirining o'rinbosari

**Utegenov Dauran Aymuratovich** – Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o'ta muhim ishlar bo'yicha tezkor vakili

**Sharipov Javlonbek Hakimjon o'g'li** – Toshkent shahri Bektemir tumani bo'yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi patrul-post xizmati inspektori

### "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan

**Abdullayev Nodirjon Abditolib o'g'li** – Toshkent viloyati prokuraturasi bo'lim boshlig'i

**Axmedov Bahriddin Hoshimovich** – Samarqand harbiy sudining raisi

**Bakirov Shokir Kuchkarovich** – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi otryad katta haydovchi-qutqaruvchisi

**Dadaxonov Xamidullo Vaxobovich** – Andijon viloyati Izboskan tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

**Djumabayev Baxrom Kurbanaliyevich** – Toshkent viloyati Nurafshon shahar ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

**Jumabayev Sherzod Avazovich** – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism seksiya komandiri

**Kamalov Abdurasul Anvarovich** – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi otryad katta yo'riqchi-qutqaruvchisi

**Minajov Reymbay Oteuliyevich** – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish koloniyasi boshlig'ining o'rinbosari

**Mirzaalimov Nishanmurod Muxtarovich** – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi

**Parmanov Abdumalik Pattoyevich** – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh mutaxassisi

**Pozilov Odil Samadovich** – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari harbiy qism qorovul boshlig'i

**Rejepov Bekpolat Mamitovich** – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi

**Soatov Fazliddin Sunnatillayevich** – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i

**Sultonov Oybek Sultonboyevich** – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi kadrlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari

**Tilabov Bahodir Samandarovich** – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bo'limi bosh serjant yordamchisi

**O'sarov Obidjon Komiljon o'g'li (marhum)** – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi

**Xudjaqulov Dilmurot Panjiyevich** – Farg'ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari – ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati boshlig'i

**Xo'jamqulov Abdivaxid Musayevich** – Surxondaryo viloyati Bojxona boshqarmasi bo'lim boshlig'i

**Shafiyev Renat Rustamovich** – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi markaz boshlig'i

### "Sog'lom turmush" medali bilan

**Karimova Saida Mo'xtar qizi** – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism bo'lim katta ofitseri

**Xolbekov Xaytbek Oybek o'g'li** – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi boshqarmasi bo'lim inspektor-psixologi

### "Shuhrat" medali bilan

**Artikov Sherzod Baxtiyarovich** – Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani prokurorining o'rinbosari

**Jumayev Sharof Norchayevich** – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Qashqadaryo viloyati boshqarmasi surishtiruvchisi

**Zaripov Maratjon Rizayevich** – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh komandiri

**Qambarov Botirjon Shermaxammatovich** – Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

**Maxkambayev Abdulla Abdisamatovich** – Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi texnik ta'mirlash qismi boshlig'i

**Po'latova Azizaxon Murot qizi** – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh katta ofitseri

**Saidov Sardor Saydullayevich** – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism seksiya komandiri

**Sanayev Begzot Yusubovich** – Sirdaryo viloyati Shirin shahar ichki ishlar bo'limi boshlig'i

**Sultanova Jamila Masharipovna** – Xorazm viloyati ma'muriy sudining raisi

**Toshpulatov Sulton Eshniyozovich** – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash boshqarmasi qo'riqlash bo'limi haydovchisi

**Usmonov Shuxriddin Xoliqovich** – Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Qarshi shahar favqulodda vaziyatlar bo'limi katta usta-qutqaruvchisi

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2025-yil 13-yanvar



## ARMIYA – VATAN QUDRATI, YUKSAK G'URUR, YURTGA SADOQAT TIMSOLI

*Vatan – ota-bobolarimizning muborak xoklari yotgan tabarruk zamin. Vatan bu – dunyoda hech narsaga almashtirib bo'lmaydigan buyuk va bebaho xazina. Shu bois xalqimiz Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini eng ulug' bayramlardan biri sifatida keng nishonlamoqda. Ezgu an'analarimizga hamohang ushbu ayyom zamirida or-nomus, qadr-qimmat, g'urur va iftixor, iymon-e'tiqod kabi tushunchalar mujassamdir.*





### 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqimizga yo'llagan Yangi yil tabrigida alohida qayd etganidek, yurtimizdagi o'zgarishlar, xalqimizning farovon va osoyishta hayotini ta'minlash yo'lida erishayotgan yutuqlarimiz, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori tobora yuksalib borayotgani, hech shubhasiz, diyorimizdagi barqarorlik, do'stlik va hamjihatlik natijasidir. Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondonining 2025-yilda "Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash ishlarini yangi bosqichga ko'taramiz", degan so'zlari bizga katta mas'uliyat yuklashi bilan birga bilagimizga quvvat, qalbimizga shijoat bag'ishladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishiga ko'ra **"Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!"** shiori ostida o'tayotgan bayram tadbirlari mamlakatimizda harbiy kasb nufuzi tobora ortib borayotganidan dalolat berib, armiyaga va harbiy xizmatga nisbatan qarashlar tamomila o'zgarganini namoyon etmoqda.

→ 4

## Oliy Majlis Senatida

# JANGOVAR SHAYLIK, MA’NAVIY YUKSAKLIK – BOSH MEZON

*Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasida O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan seminar o‘tkazildi.*

Unda so‘zga chiqqanlar ta’kidlaganidek, bugungi yorug‘, musaffo osmonimiz sofligini, osuda hayotimizni ta’minlash uchun bukilmas iroda va jasorat namunasini ko‘rsatgan, Vatan uchun jonini fido qilgan mard ota-bobolarimizning jasorati hech qachon unutilmaydi. Qudratli armiyani barpo etishda ming-minglab fidoyi insonlarning ulkan xizmatlari bor. Shu bois har yili davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mardlik, jasorat va fidoyilik ko‘rsatgan harbiy xizmatchilar davlat mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. El-yurtimiz tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oila a’zolari har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda, qator imtiyoz va kafolatlar berilgan.

Qurolli Kuchlar qo‘shinlarining doimiy jangovar shayligini ta’minlash maqsadida muntazam ravishda turli tadbirlar tashkil etilmoqda. O‘tgan yili 2023-yildagiga nisbatan jangovar shaylik tadbirlari 1,5 barobarga ko‘payib, qo‘mondonlik tarkibining kasbiy tayyorgarligini oshirishga erishilmoqda. Mashg‘ulotlarda 4 ming nafar harbiy xizmatchi ishtirok etdi. Ushbu mashg‘ulotlarda quruqlik, havo bo‘linmalari o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirishga qaratilgan taktik vazifalar bajarildi.

Qo‘shinlarda operativ tayyorgarlik tadbirlari AQSH, Hindiston, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston armiyalari bilan hamkorlikda o‘tkazildi. O‘quvlarda asosiy e’tibor zamonaviy janglarda yangi qo‘llanilayotgan uchuvchisiz uchish apparatlarini qo‘llash, ularga qarshi kurashish va boshqaruvchanlik mahoratini oshirish, strategik, operativ va operativ-taktik bo‘g‘inlarda bo‘linmalar tomonidan yangi taktik harakatlar o‘zlashtirilishiga qaratilmoqda.

Tizimda kadrlar salohiyatini oshirish borasidagi ishlar faol davom ettirilib 2024-yili Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari radiolokatsiya stansiyasi mutaxassislarini o‘qitish va qayta tayyorlash markazi ochilib, o‘quv markazlar soni 20 taga yetkazildi. Jangovar mutaxassislik bo‘yicha 10 mingdan ortiq harbiy xizmatchilar markazlarda o‘qitildi.

Qo‘shinlardagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mudofaa vazirligida besh yil muqaddam faqat 2 ta o‘quv markazi faoliyat yuritgan bo‘lsa, bugunga kelib ularning soni 19 taga yetkazildi. Ushbu markazlarda bo‘lgan AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Qozog‘iston va Ozarbayjon davlatlarining harbiy mutaxassislari bajarilgan ishlarni yuksak baholab, mazkur markazlarda tajriba almashish bo‘yicha takliflar bildirdi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar zamirida insonni qadrlashdek oliyjanob maqsad mujassam. Bu, eng avvalo, har bir fuqaroning oilasi, mahallasi tinchligini, yurt osoyishtaligini ta’minlash demakdir. Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi Qurolli Kuchlarimizning barcha tuzilmasi bilan amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish barobarida armiyamiz kuchli, salohiyatli bo‘lishi, uni yanada rivojlantirishning dolzarb muammolari yuzasidan aniq takliflar aks etgan qarorlar qabul qilmoqda.

Tadbirda bu yo‘nalishdagi ishlar yanada kuchaytirilishi, yurtimiz himoyasini ta’minlashda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlar xususida fikr almashildi.

**“Xalq so‘zi”.**

## Senator va hayot

# XALQARO HAMJAMIYAT E’TIROFI

*Bir qator xalqaro va elektron nashrlarda Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Q. Tursunovning O‘zbekistonning barqaror rivojlanish sohasidagi yutuqlari haqidagi maqolasi e’lon qilindi. Jumladan, Shveysariyada chop etiladigan “International Diplomat”, “Diva International” jurnallari, “Varkaa xabarlari” xorijiy axborot agentligi (Iroq) hamda O‘zbekiston Milliy axborot agentligi saytlarida nashr etildi.*

Unda bayon qilinishicha, O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) yutuqlarini moliyalashtirish uchun xususiy va davlat moliyasining yangi shakllarini joriy etishga qaratilgan Milliy strategiya ishlab chiqilmoqda. BRMni amalga oshirishning muvaffaqiyati barcha manfaatdor tomonlar – parlament, hukumat, fuqarolik jamiyati, biznes va ilm-fan vakillarining ishtirokiga ham bog‘liq. Amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan Global kun tartibi maqsadlariga to‘liq mos keladi. Bunga “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ham yaqqol misol bo‘la oladi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda keng ko‘lamli va kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada to‘plangan tajriba xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda. BRM va u bilan bog‘liq vazifalar yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, shuningdek, 360 dan ortiq qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan. BRMga erishishda manfaatlar muvozanatini ta’minlashning samarali mexanizmi yaratilib, parlament nazorati o‘rnatildi.

**“Xalq so‘zi”.**

# GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHI

## oqibatlarini birgalikda yengib o‘tish eng asosiy masala

←1

Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan Ko‘rfazning ushbu mamlakatiga tashrifi davomida ikki tomonlama o‘zaro aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha muzokaralar o‘tkazadi. Mamlakatning yetakchi davlat tashkilotlari, kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashadi. Shuningdek, “Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi” xalqaro sammitida ishtirok etadi.

Ta’kidlash joizki, ushbu nufuzli haftalik BAA va uning toza energiya markazi bo‘lmish “Masdar” kompaniyasi tomonidan barqaror taraqqiyotni tezlashtirish maqsadida qo‘llab-quvvatlanadigan global tashabbus hisoblanadi. 2008-yildan beri o‘tkazib kelinayotgan, shu yilning 13 – 18-yanvar kunlariga mo‘ljallangan haftalik birinchi marta “yashil” vodorod masalalariga bag‘ishlanadi. Bu esa toza hamda muqobil energiyani rivojlantirishda “yashil” vodorodning ahamiyati oshib borayotganini ko‘rsatadi.

### Bu shunchaki platforma emas

BAA sanoat va ilg‘or texnologiyalar vaziri, “Masdar” raisi doktor Sulton al-Jobirning aytishicha, mazkur haftalik davlatlarga misli ko‘rilmagan ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni ochadi. Haftalik, bu – shunchaki platforma emas, balki hammaga yaxshiroq kelajak qurish uchun cheksiz imkoniyatlarni yaratadigan dadil chaqiriq.

“Masdar” bosh direktori Muhammad Jamill al-Ramahi fikricha, 2025-yilgi sammit energiya, iqtisodiyot va atrof-muhitning o‘zaro bog‘liq yechimlarini taqdim etish uchun jahon hamjamiyatini birlashtiradigan vositadir.

Gap shundaki, mazkur anjuman tashkilotchisi – “Masdar” BAAda “yashil” vodorod iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash uchun yangi “yashil” vodorod biznesini yaratishni e’lon qildi. Uning “yashil” vodorod biznesi 2030-yilgacha yiliga 1 mln. tonnagacha “yashil” vodorod ishlab chiqarishni maqsad qilgan. Kompaniya allaqachon bu bilan bog‘liq bir qator loyihalarda faol ishtirok etmoqda, jumladan, Misrning yetakchi hukumat tuzilmalari bilan 2030-yilgacha elektrolizator quvvati 4 gigavatt bo‘lgan “yashil” vodorod ishlab chiqarish zavodlarini rivojlantirish hamda 480 ming tonnagacha “yashil” vodorod ishlab chiqarish bo‘yicha hamkorlik qilish yuzasidan kelishuvlarga erishdi.

E’tiborlisi, BAA kompaniyalari O‘zbekistonda ham faol. Ushbu mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan va istiqbolli loyihalar portfeli 20 mlrd. dollarga yetdi. “Yashil” energetika ikki tomonlama hamkorlikning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘tgan yilning dekabr oyida Navoiy viloyatida quvvati 500 megavatt bo‘lgan shamol elektr stansiyasi ishga tushirildi – bu loyiha “Masdar” kompaniyasi tomonidan amalga oshirildi. Umuman, ushbu kompaniya ishtirokida so‘nggi yillarda yurtimizda umumiy quvvati 1,5 gigavatt bo‘lgan elektr energiyasi ishlab chiqarish obyektlari ishga tushirildi. Bundan tashqari, BAAning “Masdar” kompaniyasi tomonidan quriladigan 250 megavattli quyosh elektr stansiyasi ham ular safiga qo‘shiladi. Bu loyiha uchun Olot tumanidan 648 gektar yer ajratilgan. Stansiya 2025-yil dekabrda yagona elektr tarmog‘iga ulanishi rejalashtirilgan. Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida umumiy quvvati 900 megavatt bo‘lgan uchta zamonaviy fotoelektr stansiyasini barpo etish loyihasi yakunlandi. Shuningdek, Navoiy viloyatining Tomdi tumanida 500 megavattlik shamol elektr stansiyasining birinchi bosqichi qurib bitkazildi.

### Muqobil energiya ulushi ikki baravarga ko‘paydi

Prezidentimiz “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish yangi O‘zbekistonning ustuvor strategik vazifasi ekanini bot-bot takrorlaydi. Bu maqsadlarga erishish atrof-muhit muhofazasi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash ishiga xizmat qiladi.

Shu ma’noda, so‘nggi yillarda yurtimizda muqobil energiya ulushi ikki baravarga ko‘paydi. “Yashil” vodorod ishlab chiqarish loyihasi bo‘yicha ilk amaliy qadamlar tashlandi. Toshkent viloyatida “yashil” vodorodni “pilot” tarzda ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish boshlandi. Ushbu pilot-loyiha doirasida mamlakatimizda birinchi bosqichda 3 ming tonna vodorod ishlab chiqariladi va keyinchalik mineral o‘g‘itlarga qayta ishlanadi, shuningdek, 52 megavattlik shamol elektr stansiyasi quriladi. Buni hayotning o‘zi taqozo etyapti. Negaki, an’anaviy uglerod manbalaridan shafqatsiz foydalanish jahondagi barqaror rivojlanish yo‘lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi, iqlimni keskin o‘zgartirib yubordi. Ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilmaxillik yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda.

Savol tug‘iladi. O‘zbekistonda nima uchun “yashil” energetika rivojiga bu qadar katta rag‘bat va e’tibor qaratilyapti? Chunki, eng avvalo, 2030-yilga borib sanoat hajmini ikki karra oshirish, metallurgiya, neft-kimyo va mashinasozlik kabi sohalarni sifat jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko‘tarish maqsad qilib qo‘yilgan. Umumiy qiymati 150 mlrd. dollarlik 500 dan ziyod yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish ko‘zlangan. Bu maqsadga erishish uchun mamlakatimizga kafolatli va barqaror energiya resurslari suv bilan havodek zarur.

Hisob-kitoblarga ko‘ra kelgusi besh yilda mamlakatimizda elektr energiyasiga bo‘lgan talab hozirgi 83 milliarddan 120 mlrd. kVt-soatga o‘sishi kutilmoqda. Buni, birinchi galda, qayta tiklanadigan energiya hisobidan qoplash mumkin. Ikkinchidan, global muammoga aylangan iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tinimsiz izlanilayotir. Prezidentimiz tomonidan xalqaro sammitlarda muhim taklif va tashabbuslar faol ilgari surilyapti.

Xususan, 2023-yil dekabrda Dubayda BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi doirasida dunyo mamlakatlari “yashil” generatsiyani uch barobar oshirishga kelishib olgan. O‘zbekiston ushbu tashabbusni to‘liq qo‘llab-quvvatlagan va 2030-yilgacha “yashil” energetika manbalarini 27 gigavattga yetkazish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirishini ma’lum qilgan. Zero, mamlakatimizda “yashil” energetika bo‘yicha nihoyatda ulkan salohiyat mavjud.

Sohani rag‘batlantirish maqsadida quyosh panellari o‘rnatishga imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini kafolatli sotib olish bo‘yicha “Quyoshli xonadon” tizimi yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunda global miqyosda “yashil” energiyadan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga alohida ustunlik berilmoqda.

### Muammoga panja ortidan qarab bo‘lmaydi

Joriy yil yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi. Davlat dasturi loyihasi jamoatchilik hukmiga havola etildi.

Demak, iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib borayotgan, geosiyosiy ziddiyatlar kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan, ayniqsa, kambag‘allikka qarshi kurash, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi, suv hamda resurslardan foydalanish muammolarini kuchaytirayotgan ekan, O‘zbekiston va BAA kabi mamlakatlar tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar hamda takliflarning ahamiyati ham ortib boraveradi.

Aslida ham, ekologiya asoratlarini Markaziy Osiyo ham o‘tkir his qilayotgan, iqlim muammolari aholining turmush sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini ro‘yobga chiqarishda yangi to‘siqqa aylanayotgan kezda zamonamizning global muammosiga panja ortidan qarab bo‘lmaydi. Insoniyat bir osmon ostida yashayotgani tufayli masala barcha mamlakatlar hamda qit’alarga tegishli.

Shu ma’noda, bularni bartaraf etish va Parij bitimi doirasidagi bosh maqsad – mintaqada havo haroratining jadal o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik va joriy yuz yillikda 1,5-2 daraja atrofida saqlab qolishga erishish yo‘lida O‘zbekiston ham dunyo hamjamiyati bilan hamkorlikni kengaytiradi. Asosiysi, O‘zbekiston uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha keng miqyosdagi islohotlardan ortga chekinmaydi.

Ishonchimiz komilki, davlatimiz rahbarining ushbu tashrifi davomida ilgari suriladigan tashabbuslar, xorijiy davlatlar rahbarlari va kompaniyalar yetakchilari bilan olib boradigan muloqotlari hamda erishiladigan kelishuvlar global miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, suvdan unumli va tejamkorlik bilan foydalanish borasidagi xayrli ishlarga kamarbasta bo‘ladi.

**Sadritdin TUROBJONOV,**
**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, texnika fanlari doktori, akademik.**

## Fikr

# BAA BILAN MUNOSABATLAR YANADA RIVOJLANMOQDA

*So‘nggi yillarda mamlakatimizning arab davlatlari bilan hamkorligi jadal rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) O‘zbekistonning mintaqadagi asosiy sheriklaridan biriga aylanmoqda.*

BAA uzoqni ko‘zlangan tashqi siyosat yuritib, iqtisodiyot va ijtimoiy sohada olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samarasida, nafaqat energiya resurslariga boy mamlakat, balki Yaqin Sharqda zamonaviy sayyohlik, transport-logistika va ishlab chiqarish xabiga aylangan. Abu-Dabi o‘z iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, neftga qaramlikni kamaytirish yo‘lida ulkan natijalarga erishgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra dunyo neft zaxirasining 10 foizi yettita amirlikdan iborat BAA zaminiga to‘g‘ri keladi. Biroq faqat ikki amirlik neft boyligiga ega bo‘lib, bu boylikning 95 foizi Abu-Dabi, 5 foizi Dubayga tegishli.

BAAning siyosiy boshqaruv tizimi o‘ziga xos bo‘lib, mutlaq monarxiyaga ega bo‘lgan amirliklarni birlashtirgan federativ monarxiya davlatidir. Davlatga Abu-Dabi amiri, hukumatga esa Dubay amiri rahbarlik qiladi.

Ittifoq Oliy Kengashi davlat tuzilishi iyerarxiyasida birlamchi o‘ringa ega. Ushbu Kengashga barcha yettita amirlik amirlari kiradi. Oliy Kengash davlatning umumiy siyosatini belgilab beradi, Vazirlar Kengashi esa ushbu siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun Oliy Kengash oldida hisobdordir.

Shu bilan birga, BAAda Federal Milliy Kengash, ya’ni parlament mavjud. Milliy Kengash jami 40 nafar deputatdan iborat. Ularning yarmi saylanadi va qolgan yarmi tayinlanadi. Abu-Dabi va Dubaydan 8 nafardan, Ras-al-Xayma va Sharjadan 6 nafardan hamda qolgan 3 ta amirlikdan 4 nafardan deputat bo‘ladi. Parlament qonunchilik tashabbusi huquqiga ega emas, balki Hukumat tomonidan kiritilgan qonun loyihalarini ko‘rib chiqadi va ular bo‘yicha xulosa beradi. Ushbu loyihalarning ayrim normalariga tuzatishlar kiritishi mumkin.

BAAda rais va 4 nafar mustaqil sudyadan iborat Ittifoq oliy sudi sud hokimiyatini tashkil etadi. Amirlik BMT, Arab davlatlari ligasi, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar a’zosi, 2024-yil 1-yanvardan BRIKS ishtirokchisidir.

O‘zbekistonda Amirliklar sarmoyasi ishtirokida 300 dan ziyod korxonalar faoliyat yuritmoqda. Qo‘shma loyihalar umumiy qiymati 4 mlrd. dollardan oshgan. BAA yetakchi kompaniyalari ishtirokida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar 20 mlrd. dollarga teng. Ular “yashil” energetika, metallurgiya, qishloq xo‘jaligi, transport va kommunikatsiya kabi tarmoqlardagi istiqbolli loyihalardir.

“Yashil” energetika ikki tomonlama hamkorlikning ustuvor yo‘nalishidir. O‘tgan yili 13-dekabr kuni Navoiy viloyatida quvvati 500 megavatt bo‘lgan shamol elektr stansiyasi ishga tushirildi – bu loyiha “Masdar” kompaniyasi tomonidan amalga oshirildi. Umuman, ushbu kompaniya ishtirokida so‘nggi yillarda mamlakatimizda umumiy quvvati 1,5 gigavatt bo‘lgan elektr energiyasi ishlab chiqarish obyektlari ishga tushirildi.

Energetika, neft-gaz va kimyo tarmoqlari, tog‘-kon sanoati, suv ta’minoti, maishiy chiqindini qayta ishlash va boshqa yo‘nalishlarda yirik investitsiya loyihalarini tayyorlash va uning ijrosi borasida jadal ishlar olib borilmoqda.

BAAning yurtimizdagi investitsiya portfeli 12 mlrd. dollardan oshib, qiymati yana 10 mlrd. dollarga teng loyihalar faol ishlab chiqilyapti. Ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi oxirgi besh yil ichida qariyb uch barobar o‘sgan.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston va BAA o‘rtasida davlat xizmatini takomillashtirish, boshqaruv xodimlari faoliyatini baholash, tizimni raqamlashtirish bo‘yicha ham samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Prezidentimizning mazkur mamlakatga amalga oshirayotgan rasmiy tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirib, yangi bosqichga olib chiqishi, shubhasiz.

Biz, parlament a’zolari esa BAA bilan parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirib, ikki mamlakat o‘rtasida imzolangan kelishuv va bitimlarning o‘z vaqtida va samarali bajarilishiga munosib hissa qo‘shishimiz, tashrifning ahamiyati va natijalarini xalqimizga sodda va tushunarli qilib yetkazishimiz lozim.

**Jumanazar OTAJONOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# Huquqiy vakolat va imtiyozlar aks etgan xalqchil normalar

*Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalari atroflicha ko‘rib chiqildi.*

## Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

Jumladan, **Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida dastlab “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi loyihasi muhokama qilindi.

Deputatlar davlat dasturining mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida fikr-mulohazalarini bildirib, loyiha muhokamasida partiyaning hududiy kengashlari, mahalliy Kengashlar deputatlari, faollar taklif va tavsiyalarini berish bilan birga, ularning ushbu jarayonda faol ishtirok etishi lozimligini aytishdi.

Yig‘ilishda tadbirkorlik subyektlari aynan bir huquqbuzarlik uchun bir necha marotaba javobgarlikka tortilishining oldini olishga qaratilgan qonun loyihasi mufassal ko‘rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Ma’muriy javobgarlik hamda Soliq kodekslariga shaxsning sodir etgan aynan bir huquqbuzarligi uchun bir marotaba javobgarlikka tortilishini ta’minlash va soliq ma’muriyatchiligining yanada takomillashtirilishiga oid tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

> «O‘zbekiston Respublikasi faxriy donori» ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslarga ular uchun qulay bo‘lgan vaqtda har yilgi mehnat ta’tiliga chiqish, shahar jamoat transportining barcha turidan (yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksilardan tashqari) bepul foydalanish, sanatoriy-kurortlarda davolanish uchun yo‘llanmalarni navbatsiz olish huquqini berish ko‘zda tutilmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a’zolari qonun loyihasi yuzasidan fikrlarini bildirib, uni ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan berilgan takliflar e’tiborga olingani va hujjat matnida aks etganligini ta’kidlashdi.

Aholiga sud muhokamalarida masofadan qatnashish uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokama markazida bo‘ldi.

Fraksiya a’zosi Dilmurod Artiqov qonun loyihasi bilan Fuqarolik, Iqtisodiy protsessual hamda Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodekslarga aholiga sud muhokamalarida masofadan turib ishtirok etishning huquqiy asoslarini yaratishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilayotganini aytdi. Ya’ni u bilan sud majlislarida sud binosiga kelmasdan masofadan turib mobil videokonferensaloqa rejimida qatnashishning protsessual asosi va tartibi belgilanmoqda.

Deputatlar qonun loyihasining qabul qilinishi aholining sud majlislariga kelishlari bilan bog‘liq ovoragarchiliklarining oldini olishga zamin yaratishini e’tiborga olib, uni qo‘llab-quvvatladi.

**O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ma’lumki, amaldagi qonunchilikka ko‘ra, fuqarolar yig‘inining raisi uch yil muddatga saylanadi. Ammo bugungi o‘zgarishlar jarayoni bu muddat fuqarolar yig‘ini raislariga o‘z bilim va boshqaruv qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishga yetarlicha imkoniyat bermayapti. Ana shunday ehtiyojdan kelib chiqib ushbu qonun loyihasi bilan yangi saylangan fuqarolar yig‘ini raisi to‘liq 5 yil muddatga saylanishini belgilash taklif qilinmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a’zolari qonun loyihasi yuzasidan fikr-mulohazalarini, taklif va tavsiyalarini bildirdi. Loyihadagi ayrim normalar bo‘yicha bir qator savollar o‘rtaga tashlandi.

Deputatlar ushbu qonun loyihasi fuqarolar yig‘inlari raislari faoliyatini hamda fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini uyushtirish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi komissiyalar ishini samarali tashkil etishga xizmat qilishini e’tiborga olib, uni qo‘llab-quvvatladi.

Yig‘ilishda O‘zbekistonda faktoring xizmatlari bozorini rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi ham ko‘rib chiqildi.

Mazkur loyihada pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bo‘yicha taqiqni buzganlik uchun javobgarlikni bekor qilish, mijozning kontragenti norezident bo‘lganda faktoring operatsiyalarini xorijiy valyutada amalga oshirishga ruxsat berish, pul talabnomasidan voz kechish to‘g‘risidagi xabarnomalarni garov reestrida ro‘yxatga olishni yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, loyihada tadbirkorlik subyektlariga faktoring xizmati ko‘rsatishga ixtisoslashtirilgan faktoring tashkilotlarini tashkil etish, ularni nobank kredit tashkiloti sifatida reestrga kiritish va uning faoliyatini Markaziy bank tomonidan tartibga solish belgilanyapti.

Deputatlarning fikricha, qonun loyihasining qabul qilinishi mamlakatimizda faktoring xizmatlarini amalga oshirishning xalqaro amaliyotga mos qonunchilik bazasi yaratilishiga xizmat qiladi.

**O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi qizg‘in muhokama qilindi.

Dastur loyihasi partiyaning bir qator g‘oyalariga hamohang keladigan chora-tadbirlarni qamrab olgani bilan ahamiyatli ekani ta’kidlandi. Xususan, pedagoglarni xorijiy davlatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish taklif etilayotgani partiya elektoratining asosiy qatlami bo‘lgan pedagoglarni mamnun qilmoqda.

Deputatlar loyihada barcha soha qatori yagona elektron tibbiyot tarmog‘ini shakllantirishni davom ettirish, raqamli texnologiyalar joriy qilingan tibbiyot muassasalari ulushini 70 foizga yetkazish vazifasi ham o‘rin olganini alohida qayd etishdi.

Partiya va uning fraksiyasi a’zolari dastur loyihasini takomillashtirishda faol ishtirok etishi aytildi.

Yig‘ilishda donorlik harakatini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham atroflicha ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlab o‘tilganidek, ushbu qonun loyihasining maqsadi donorlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, aholi orasida beg‘araz donorlik madaniyatini shakllantirish, bu harakatni keng jamoatchilik ishtirokida rivojlantirish hamda qon donorlariga sifatli xizmat ko‘rsatishga qaratilgan.

Xususan, loyiha bilan “O‘zbekiston Respublikasi faxriy donori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslarga ular uchun qulay bo‘lgan vaqtda har yilgi mehnat ta’tiliga chiqish, shahar jamoat transportining barcha turidan (yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksilardan tashqari) bepul foydalanish huquqini berish nazarda tutilmoqda.

> Ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi bilan yangi saylangan fuqarolar yig‘ini raisi to‘liq 5 yil muddatga saylanishini belgilash taklif etilmoqda.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasi yuzasidan fikrlarini bildirdi. Uning qabul qilinishi donorlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishda ayni muddao ekani e’tiborga olinib, qo‘llab-quvvatlandi.

**O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan yangi saylangan fuqarolar yig‘ini raisi to‘liq 5 yil muddatga saylanishini belgilash, fuqarolar yig‘ini raisi sayloviga tayyorgarlik tadbirlarini o‘tkazish muddatlari va tartibini takomillashtirish maqsad qilingan. Xususan, fuqarolar yig‘ini sayloviga tayyorgarlik tadbirlarini o‘tkazish muddatlari va tartibini belgilovchi vakolatlarni respublika ko‘maklashuvchi komissiyalaridan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ko‘maklashuvchi komissiyalariga berilishi belgilanayotir.

Bundan tashqari, fuqarolar yig‘ini raisi vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda bo‘shab qolgan o‘rinlarga yangi saylov o‘tkazish orqali fuqarolar yig‘ini raisini besh yil muddatga saylash tartibini belgilash nazarda tutilyapti. Oliy Majlis Senati Kengashining fuqarolar yig‘ini raisi saylovini o‘tkazish bilan bog‘liq vakolatlarini esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga o‘tkazish taklif qilingan.

Deputatlar qonun loyihasi muhokamasida amaldagi tartib eskirib qolgani va yangilik kiritish yaxshi samara berishi mumkinligini ta’kidladi. Ularning so‘zlariga ko‘ra qonun loyihasidagi o‘zgartirishlarning tatbiq etilishi fuqarolar yig‘ini vakolatlarini yanada kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Fraksiya a’zolari ushbu jihatlarni inobatga olgan holda o‘z takliflari, fikr-mulohazalarini bildirdi. Kelgusi o‘qishgacha qo‘shimchalar ustida ishlashga kelishilgan holda loyiha qo‘llab-quvvatlandi.

**O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida “Donorlik harakatini qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Inson salomatligi uchun donorlik muhim ahamiyatga ega. Shu bois mamlakatimizda aholi orasida beg‘araz donorlik madaniyatini shakllantirish, donorlik harakatini keng jamoatchilik ishtirokida rivojlantirish, qon donorlariga sifatli xizmat ko‘rsatish va ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun loyihasida “O‘zbekiston Respublikasi faxriy donori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslarga ular uchun qulay bo‘lgan vaqtda har yilgi mehnat ta’tiliga chiqish, shahar jamoat transportining barcha turidan (yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksilardan tashqari) bepul foydalanish, sanatoriy-kurortlarda davolanish uchun yo‘llanmalarni navbatsiz olish huquqini berishni ko‘zda tutuvchi normalar o‘rin olgan.

Qayd etilganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi soha rivojiga, tibbiyot sohasida qon zaxiralari va beg‘araz donorlar sonining ortishiga yo‘l ochishi bilan ahamiyatlidir. Yakunda xalq vakillari tomonidan taklif va tavsiyalar berilib, qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.

*Yig‘ilishlarda fraksiyalar faoliyatiga oid boshqa masalalar ham ko‘rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.*

**“Xalq so‘zi”.**

**Organik va organik-mineral o‘g‘itlar xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglamentning yangi tahriri tasdiqlandi.**

## Davlat dasturi loyihasi – muhokamada

# INSON MANFAATLARI – USTUVOR YO‘NALISH

*Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari hamda Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitalarining qo‘shma majlisida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi muhokama qilindi.*

Unda aholi salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish mamlakat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangani ta’kidlandi.

Davlat dasturi loyihasidagi 5 ta ustuvor yo‘nalishda har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish, ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan maqsadlar qamrab olingan. Joriy yilda 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrov darajasini 98 foizga yetkazish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 65 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblarini yaratish va amaliyotga joriy etish kabi vazifalar belgilangan. Umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish maqsadida nodavlat umumiy o‘rta ta’lim maktablari sonini 600 taga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Xorijiy ilmiy tashkilot va universitetlarga ilmiy stajirovkaga yuborilgan tadqiqotchilar umumiy sonida 35 yoshgacha bo‘lgan tadqiqotchilarning ulushi 80 foizga oshiriladi.

Sog‘liqni saqlash sohasida 7,1 mln. nafar 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida eng ko‘p uchraydigan yurak-qon tomir, qandli diabet, o‘pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari xavfini aniqlash maqsadida profilaktik ko‘riklarni o‘tkazish hamda 3 – 18 yoshli 10 mln. nafar bolada onkogematologik kasalliklarni erta aniqlash bo‘yicha ommaviy va selektiv skriningdan o‘tkazish choralari rejalashtirilmoqda.

Majlis davomida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo‘nalishida pragmatik faol va izchil tashqi siyosatini amalga oshirishga doir 10 ta maqsadni qamrab olgan takliflar ko‘rib chiqildi.

Ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, yetakchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan istiqbolli hamkorlik yo‘nalishlarini kengaytirish hamda O‘zbekiston Respublikasining BMTdagi o‘rni va nufuzini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutilmoqda.

Senatorlar umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirish, oliy ta’lim muassasalari reytingini yaxshilash, yosh tadqiqotchilarning ulushini ko‘paytirish va ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash, yangi O‘zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirishga qaratilgan takliflarni qayd etishdi.

Xalqaro hamkorlik, xorijiy investitsiyalarni va turizmni jadal rivojlantirish hamda aholiga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mas’ul vazirlik va idoralarning hamkorligini kuchaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Muhokama davomida senatorlar, ekspertlar hamda mutaxassislar tomonidan davlat dasturi loyihasi yuzasidan bir qator taklif va tavsiyalar bildirildi.

**“Xalq so‘zi”.**

# TARAQQIYOT YO‘LIDAGI KENG QAMROVLI ISLOHOTLAR

*“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda Prezidentimizning Oliy Majlis palatalari majlislaridagi nutqlarida belgilab berilgan vazifalarning ijrosini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar joriy yilgi davlat dasturi loyihasida o‘z aksini topmoqda.*

Mazkur dastur loyihasi aholi tanishib chiqishi uchun ixcham shaklda tayyorlangan bo‘lib, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari kesimida 2025-yil uchun amaliy chora-tadbirlar, normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati va maqsadli ko‘rsatkichlar nazarda tutilmoqda. Loyihada atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot masalalari bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy, davlat boshqaruvi, sud-huquq, xavfsizlik va tashqi siyosat yo‘nalishlarida keng qamrovli islohotlar ham nazarda tutilgan.

Mahallalarning ekologik qiyofasi yaxshilanib, ko‘chalarda yashillik darajasi oshiriladi, ekologik jihatdan qulay bo‘lgan farovon yashash muhiti shakllantiriladi. Aholi salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini ko‘tarish hamda inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratishda amalga oshiriladigan vazifalar davlat dasturidagi 5 ta yo‘nalish va yuzta maqsadda aniq belgilab qo‘yilmoqda.

Tabiiy resurslarni tejash, oqilona foydalanish kabi omillar ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilishi belgilangan. O‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko‘paytirish, tabiiy xilmaxillikni ta’minlagan holda keyingi avlodga yetkazish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish zarurligi, respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish muhimligi ko‘rsatib berilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik asosida yirik “yashil” energiya stansiyalarini barpo etish, hududlarda kichik va mikrogidroelektrostansiyalar tarmog‘ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o‘rnatish ishlari rag‘batlantiriladi.

2025-yili yashillik darajasini hamda piyodalar va velosiped yo‘laklari atrofida daraxt ko‘chatlarini ekish tadbirlarini ko‘paytirish orqali “Soyali sayr ko‘chalari” sonini oshirish, aholi punktlariga yaqin bo‘lgan suv tarmoqlari sohil bo‘ylarida 80 ta infratuzilma obyekti, 110 kilometrdan ortiq sog‘lomlashtirish yo‘laklari qurish kabi vazifalar belgilanmoqda.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi bo‘yicha 200 mln. tup ko‘chat ekilishi ta’minlanadi. Davlat dasturi doirasida Orol dengizining qurigan tubida 100 ming gektar yashil maydon barpo qilinishi, sho‘r va suvsizlikka chidamli o‘simliklar (galofit) bog‘lari tashkil etilishi, Orolbo‘yi mintaqasidagi o‘rmonzorlar 2,1 mln. gektarga yetkazilishi natijasida o‘rmon bilan qoplangan maydonlar hajmini 4,1 mln. gektarga oshirish, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 14,5 foizgacha kengaytirish masalalari ko‘zda tutilmoqda.

Aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirishda inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida tegishli vazifalar belgilab olinmoqda.

“Ekofaol fuqaro” hayot tarzini keng targ‘ib qilishga qaratilgan “Bir million “yashil” oila” umummilliy harakati yo‘lga qo‘yilishi belgilanyapti. Piyoda yurish, “yashil” transportda, jumladan, velosipedda harakatlanishni rag‘batlantirish, plastik mahsulotlardan foydalanishni kamaytirish, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishning inson salomatligiga foydasini targ‘ib qilishni kuchaytirish yo‘lida dastur hamda oziq-ovqat xavfsizligi yo‘nalishida xavf-xatarlarni aniqlash, baholash, boshqarish va monitoring qilish maqsadida idoralararo yaxlit Milliy axborot platformasi ishlab chiqiladi.

Suv, gaz va elektr energiyasi resurslaridan, qishloq xo‘jaligi yerlaridan, tomorqa xo‘jaliklaridan keng foydalanish yo‘lga qo‘yiladi. Paxta va g‘alla maydonlarini qisqartirishdan bo‘shagan kamida 100 ming gektar yer maydonlarini ijaraga berish orqali 200 ming nafar aholi bandligi ta’minlanadi. Agrar sohada tuproq agrokimyoviy tahlillarini o‘tkazish maqsadida yuzta portativ-mobil laboratoriya xarid qilishni ta’minlash, organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiriladigan yer maydonlarini o‘n ming gektarga yetkazish masalalari qamrab olingan.

Shuningdek, joriy yil atrof-muhitni asrash yo‘nalishida vazirlik va idoralar tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan qator chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish masalalariga katta e’tibor qaratilgan.

Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili davlat dasturi loyihasidan o‘rin olgan tadbirlarning hayotiy ro‘yobi, eng avvalo, xalqimiz turmush farovonligini yanada oshirishga, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, atrof-muhit va inson salomatligini muhofaza etish, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali bu ne’matlarni kelajak avlodlarga ham yetkazishga xizmat qiladi.

**Anvar TO‘YCHIYEV,**
**Oliy Majlis Senatining**
**Agrar, suv xo‘jaligi masalalari**
**va ekologiya qo‘mitasi raisi.**

# Oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlik omili

*2025-yil yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”, deb e’lon qilindi. Ayni paytda bu bo‘yicha ishlab chiqilgan davlat dasturi va uni tasdiqlash to‘g‘risidagi Prezident Farmoni loyihalari keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilmoqda.*

Bugun butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga katta e’tibor qaratilyapti. Bu jarayonda yaylovlarni saqlash va ulardan barqaror foydalanish “yashil” iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘inlaridan biri sanaladi. Zero, yaylovlar nafaqat tabiiy resurslar, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadigan strategik manbadir.

Darhaqiqat, atrof-muhitni asrash iqtisodiyotimiz uchun juda muhim. Buni mamlakatimiz umumiy yer maydonining 47 foizga yaqin qismini egallagan yaylovlardan foydalanish holati, ularning bevosita iqlimga ta’siri misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, keyingi yillarda respublikamizda yaylovlar qisqarib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Xususan, yaylovlar hajmi 1990-yilda 23,5 mln. gektar, 2000-yilda 22,3 mln. gektar bo‘lgani holda 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 21,2 mln. gektarni (umumiy yer maydonining 47 foizi), shundan 16,8 mln. gektari (79,2 foizi) cho‘l va 4,4 mln. gektari (21 foizi) tog‘ hamda tog‘oldi yaylovlarni tashkil etmoqda.

O‘z navbatida, mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan 2 barobar yuqori bo‘lib, 2050-yilgacha bu ko‘rsatkich 3 darajaga ko‘tarilishi prognoz qilinyapti. Bu esa mavjud yaylovlar degradatsiyasi, ularning hosildorligi pasayishi hamda mintaqadagi iqlim o‘zgarishi jarayonlari keskinlashuviga olib kelmoqda. Fanlar akademiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, yaylovlarda chorva mollarining tartibsiz boqilishi, global iqlim o‘zgarishi ta’siri natijasida mamlakat cho‘l yaylovlarining deyarli 50 foizi turli darajada degradatsiyaga uchragan bo‘lib, ularning hosildorligi o‘rtacha 21 foizga kamaygan.

Xalqaro markazlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, yaylovlar o‘simlik qoplamidagi turlar soni hozirgi kunda keskin kamaygan bo‘lib, regressiyasi va hosildorligining pasayishi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro va Navoiy viloyatlarida 42-43 foizni tashkil etmoqda. Misol uchun, bundan 40 yil oldin Qarnabcho‘l tabiiy florasida 260 dan ortiq gulli o‘simlik turlari qayd etilgan bo‘lsa, hozir ushbu hududda o‘simlik turlari soni 35 – 40 tadan ortmaydi, ya’ni biologik xilmaxillik 6-martadan ortiq kamaygan. Ushbu tabiiy florada hozirgi kunda singren, moyli qora no‘xatak, ingichka poyali astragal, qasmaldoq, laylak tumshuq, chitirning ayrim turlari, qoramashoq singari turlar deyarli uchramaydi.

Mutaxassislar fikricha, yaylovlar degradatsiyasi oqibatida respublika bo‘yicha yiliga 3,2 mlrd. dollardan ortiq iqtisodiy zarar ko‘rilmoqda, o‘rta hisobda 1 mln. 650 ming tonnadan ko‘proq tabiiy yem-xashak boy berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Yaylovlar to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, yaylovlar chorva mollari uchun ozuqa bo‘lgan o‘simliklarning tabiiy qoplamiga ega yerlar hisoblanadi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yaylovlardan nafaqat chorva mollarini boqish manbai sifatida, balki sanoat, tog‘-kon, energetika, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, hattoki, farmatsevtika sohalarida ham foydalanish mumkin. Bu esa yaylovlarning biz uchun strategik rezerv va qo‘shimcha imkoniyatlar manbai ekanligidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda qayd etish kerak, iqtisodiyotning barcha tarmog‘i, xususan, qishloq xo‘jaligi jadal rivojlanishi, shiddatli urbanizatsiya jarayoni hamda aholi soni ko‘payishi natijasida mavjud yer resurslari qisqarib borayotganini kuzatish mumkin. Masalan, so‘nggi 4 yil mobaynida hududlarda ro‘yobga chiqarilayotgan investitsiyaviy loyihalar ko‘lamining oshib borishi natijasida qariyb 500 gektardan ortiq yaylov yer maydonlari ajratildi.

Prezidentimiz raisligida 2024-yil 21-oktyabr kuni “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida so‘nggi vaqtlarda yurtimizda chang bo‘ronlari tez-tez sodir bo‘layotgani, bunga global iqlim o‘zgarishi bilan bir qatorda, chorva mollarining tartibsiz boqilishi oqibatida cho‘l yaylovlari degradatsiyaga uchrayotganligi ham sabab bo‘layotgani ta’kidlangan edi.

Davlatimiz rahbari aholi ko‘payib borayotgan sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha eng katta zaxiramiz – yaylovlar ekaniga e’tibor qaratib, bu bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni belgilab berdi. Kelgusi yilda mazkur maqsadlar uchun dastlab 50 mln. dollar grant mablag‘lari jalb etilishi nazarda tutildi.

Chorvachilik tarmog‘iga yaylovlarning o‘tkazilishi hamda ularning hosildorligini oshirish uchun grant mablag‘lari ajratilishi ozuqa tanqisligi bo‘yicha mavjud muammolarning yechilishiga qaratilgan oqilona qaror ekanligini ta’kidlash lozim.

Shu asnoda yaylovlar degradatsiyasi va “issiqxona gazlari” hajmini kamaytirish, ularda o‘simliklar turlarini ko‘paytirish hamda global iqlim o‘zgarishlariga moslashuvchan yaylov ekotizimini yaxshilash maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

*birinchisi*, yaylovlarni degradatsiyadan chiqarish va ulardan barqaror foydalanishni ta’minlashga mo‘ljallangan uch yillik dasturni ishlab chiqish hamda yaylovlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish yo‘nalishidagi maxsus vakolatli davlat organlarining aniq vazifalarini belgilash;

*ikkinchisi*, yaylovlardan foydalanish, holatini yaxshilash, degradatsiyaning oldini olish bo‘yicha xorijiy davlatlar ilg‘or tajribalari hamda xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini keng joriy etish;

*uchinchisi*, yaylovlarga xalqaro tashkilotlarning grant mablag‘larini keng jalb etish hamda iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha monitoring ishlarini olib borish.

E’tiborlisi, 2025-yilgi davlat dasturi loyihasida ham cho‘l, tog‘li va tog‘oldi hududlarda cho‘llanish, qum ko‘chishi, tuproqni suv, shamol eroziyasidan saqlash va uning oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida himoya o‘rmonlarini (ihota) barpo qilish aks etmoqda. Shuningdek, cho‘llanish, qurg‘oqchilik, chang-qum bo‘ronlari va haroratning ko‘tarilishiga qarshi chora sifatida, asosan, 200 ming gektar maydonda yashil qoplamalar – himoya o‘rmonzorlarini barpo etish nazarda tutilyapti. Iqlim o‘zgarishiga asosiy sababchi “issiqxona gazlari”ni qamrab oluvchi monitoring tizimini yaratish, “issiqxona gazlari”ning yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 30 foizga qisqartirishga e’tibor qaratilmoqda. Bu “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, davlat dasturi loyihasida ushbu yo‘nalishda belgilanayotgan chora-tadbirlar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Jumladan, yaylovlarni to‘g‘ri boshqarish nafaqat atrof-muhit muhofazasiga, balki oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy o‘sishga ham xizmat qiladi.

**Erkin HAYITOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik**
**palatasi deputati.**

# Boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy modeli shakllanmoqda

*Keng jamoatchilik muhokamasi uchun e’lon qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yilida amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasining 81-maqsadida respublika va mahalliy ijro hokimiyati organlari, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va xo‘jalik birlashmalarining rahbarlik lavozimlari uchun kompetensiya modelini hamda professional kompetensiyalarini baholash tizimini joriy etish ko‘zda tutilgan.*

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar davlat xizmatchilari tayyorgarligi va rivojlanishida yangi yondashuvlarni joriy qilishni talab etmoqda. Raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi va davlat boshqaruvi yo‘nalishidagi yangi chaqiriqlar sharoitida boshqaruv kompetensiyasini shakllantirish davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Xususan, katta ma’lumotlar (big data) va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari kabi innovatsion texnologiyalarni joriy etish kadrlar resurslarini optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Zamonaviy chaqiriqlar – raqamli transformatsiya, globallashuv, raqobat kuchayishi va jamiyatning ortib borayotgan ehtiyojlari davlat xizmatchilaridan yuqori malaka, e’tibor va tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatini talab qilmoqda. Ko‘plab mamlakatlarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida davlat apparati kadrlarini rivojlantirish e’tirof etilayotir.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi zamonaviy va samarali davlat boshqaruv tizimini yaratishga intilib, xalqaro tajribani faol qo‘llamoqda va davlat xizmatchilarining kompetensiyasini rivojlantirishning o‘ziga xos modellarini ishlab chiqmoqda. Bu jarayonda markaziy o‘rin kadrlar tayyorgarligini oshirish sifati, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish hamda yangi boshqaruv va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarga tegishlidir.

2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi vazirliklar, idoralar va hududiy boshqaruv organlari bilan hamkorlikda xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda davlat fuqarolik xizmatchisining kompetensiya modelini ishlab chiqishga kirishdi. Buning uchun Prezident Shavkat Mirziyoyevning 40 dan ortiq ma’ruzalari va ko‘rsatmalari matnlari, O‘zbekiston Respublikasining strategik rivojlanishiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi, shuningdek, kompetensiyalarni ishlab chiqish yo‘nalishida tajribaga ega bo‘lgan 14 xorijiy mamlakat va 5 xalqaro tashkilotning tajribasi o‘rganildi.

Mazkur kompetensiya modelini ishlab chiqishda anketalashtirish metodikasi qo‘llanildi. Yuqori va o‘rta bo‘g‘in rahbarlari, vazir o‘rinbosarlari, departamentlar, boshqarmalar va bo‘limlar rahbarlari orasida 350 dan ortiq rahbarlardan anketalar olindi. Shuningdek, viloyatlar hokimlari o‘rinbosarlari va 50 dan ortiq tuman (shahar) hokimlari bilan intervyu o‘tkazildi.

Tahlil natijalari asosida davlat fuqarolik xizmatchilarining samarali faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan 10 ta muhim kompetensiyadan iborat qobiliyat modeli ishlab chiqildi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktyabrdagi 629-qarori bilan Rahbar kadrlarni baholash markazi tashkil etildi. Uning ustuvor maqsadi zamonaviy texnologiyalar asosida rahbar kadrlarning faoliyati, bilimi va ko‘nikmalarini baholash, natijalarni tahlil qilish va boshqarish imkoniyatlarini yaratishdan iborat.

*Davlat fuqarolik xizmatchisi ega bo‘lishi zarur bo‘lgan kompetensiyalar:*
- liderlik – jamoani ruhlantirish, yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyati, umumiy maqsadlarga erishish uchun hamkorlik qilish;
- natijaga yo‘naltirilganlik – maqsadga erishish yo‘lida aniq natijani tushunish, unga intilgan holda muvaffaqiyatga erishish uchun qiyinchiliklarni yengib o‘tish;
- strategik fikrlash – vaziyatni baholash, nozik jihatlarni sezish, ma’lumotlarni tahlil qilish, standart bo‘lmagan yechimlarni topish va xulosa chiqarish;
- maqsadlarni belgilash – aniq maqsadlarni belgilash va tushunish, ularga erishish uchun aniq rejalarni ishlab chiqish;
- muammolarni hal qilish – qiyinchiliklarga samarali yechim topish, noaniq sharoitlarda ham maqsadlarga erishish;
- o‘zgarishlarni boshqarish – yangi sharoitlar, texnologiyalar, jarayonlar yoki tuzilmalarga moslashish;
- qarorlar qabul qilish – maqsadlar, cheklovlar, xavf-xatarlar va ziddiyatli nuqtayi nazarlarni hisobga olgan holda o‘z vaqtida to‘g‘ri qaror qabul qilish;
- o‘z-o‘zini rivojlantirish – bilim, ko‘nikma, shaxsiy fazilatlar va dunyoqarashni faol va maqsadli ravishda o‘stirish;
- tashabbuskorlik – mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, g‘oyalarni taklif qilish va maqsadlarga erishish uchun amaliyot qadamlarini bajarish;
- qat’iyatlilik – ishonch va qat’iyat bilan harakat qilish, ehtimoliy muammolar va xavflarni oldindan ko‘ra bilish.

Shundan kelib chiqib, markaz davlat fuqarolik xizmatchilari uchun faoliyat yo‘nalishlari va lavozimlar iyerarxiyasiga qarab kompetensiya modellarini ishlab chiqish, ushbu modellar doirasida samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlarini belgilash, ishlab chiqilgan kompetensiya modeli asosida davlat fuqarolik xizmatchilarini baholash uchun kompleks shaxsiy-kasbiy diagnostika o‘tkazish, kompetensiyalarni baholash natijalari asosida davlat fuqarolik xizmatchilari shaxsiy-kasbiy rivojlanishining individual trayektoriyalarini ishlab chiqish ishlarini amalga oshirishni rejalashtirgan.

Shuningdek, kompetensiyalarni baholashning yangi usullarini yaratish, baholashga doimiy ravishda zamonaviy yondashuvlarni yangilash va amaliyotga joriy qilish, davlat xizmatiga nomzodlarni baholash, kasbiy bilimlar, qadriyatlar va intellektual salohiyatni test sinovlari orqali baholash, shuningdek, rahbarlik lavozimlariga nomzodlar uchun psixologik so‘rovlar tashkil etish, kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarni monitoring qilish va prognozlash, kadrlarga ehtiyojni oldindan aniqlash hamda xodimlarni tanlash va tayinlash jarayonlarini boshqarish ko‘zda tutilgan.

Shaxsiy xususiyatlar, ya’ni insonning ma’lum bir faoliyat turini samarali amalga oshirishiga turtki beruvchi xususiyatlari davlat xizmatida muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat xizmatchisining bilim va ko‘nikmalari qanchalik yuqori bo‘lsa, ushbu tizim shunchalik samarali bo‘ladi.

Shunday ekan, davlat xizmatini ravnaq toptirish uchun, avvalo, davlat xizmatchilarini rivojlantirish zarur. Buning uchun ularning kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirish talab etiladi. Islohotlarning hozirgi bosqichida yangi professional davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish, ularning malakasini oshirish, faoliyatining sifati va samaradorligini yanada yaxshilash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga ko‘ra, davlat xizmatchilari o‘z kasbiy kompetensiyasini muntazam oshirishi shart. Ya’ni davlat xizmatchisi o‘z tashkilot vakolatlarini to‘g‘ri va samarali amalga oshirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.

Shu jihatdan 2021-yildan 2024-yilgacha 415 dan ortiq o‘quv kurslari va treninglar tashkil qilindi, ularda 166 mingdan ziyod davlat xizmatchilari ishtirok etdi. 2024-yil davomida esa milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan 1 166 nafar nomzod, istiqbolli kadrlar zaxirasidagi 494 nomzod, vazirlik va idoralarning markaziy apparatlarida ishlayotgan 807 nafar tuzilma rahbari, o‘rta va quyi bo‘g‘inning 1 644 nafar rahbari, kadrlar bilan ishlash uchun mas’ul bo‘lgan tuzilmalarning 363 rahbari, Xalq qabulxonalari tizimida ishlaydigan 464 nafar rahbar, tuman va shahar hokimliklarida faoliyat yuritayotgan 1 343 mutaxassis, hududiy hokimlik sektorlari bo‘yicha yaqinda tayinlangan 52 nafar rahbar va xalqaro reyting hamda indekslar bo‘yicha mas’ul vazirlik va idoralarning 51 nafar xodimi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan malakasini oshirish kurslarini o‘tdi.

Shuningdek, maxsus tayyorlov dasturlari, jumladan, “Ayol rahbarlar maktabi”, “Hokimlar tayyorlov maktabi”, “Mahalla yettiligi” dasturlari ham amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlar davlat xizmatchilarining professionalizmi va kompetensiyasini oshirishga qaratilgan.

Alohida ta’kidlash joizki, ishlab chiqilgan kompetensiya modeli davlat xizmatchilari malakasini oshirish kurslari uchun o‘quv dasturlarini tayyorlashda asosiy yo‘nalish sifatida xizmat qildi. Ushbu o‘quv kurslari kompetensiyalar strukturasiga muvofiq bo‘lib, davlat xizmatchilari uchun muhim bo‘lgan asosiy ko‘nikmalar, shu jumladan, yetakchilik kompetensiyalariga alohida urg‘u beradi.

Bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy va mafkuraviy jarayonlarning tez sur’atlarda o‘zgarib borishi hech bir mamlakatning boshqalardan alohida holda rivojlana olmasligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan har qanday davlat barcha sohada taraqqiyotga erishish uchun boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqa o‘rnatishga intiladi.

O‘zbekistonda ham davlat fuqarolik xizmati sifatini yaxshilash BMT Taraqqiyot dasturining “Davlat xizmatlarini takomillashtirish va O‘zbekiston qishloq hududlarida boshqaruv darajasini oshirish”, GIZ tashkilotining mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari samaradorligini ko‘tarishga qaratilgan “Mos davlat boshqaruvi”, USAID tashkilotining “O‘zbekistonda mahalliy davlat boshqaruvini rivojlantirish” kabi xalqaro loyihalari bilan birgalikda hayotga tatbiq etilmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro dasturlar doirasida Germaniya, Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda muntazam ravishda xorijiy stajirovkalar tashkil etilib kelinmoqda. Davlat fuqarolik xizmatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari faol joriy qilinmoqda.

Xususan, davlat fuqarolik xizmatchilari uchun masofaviy malaka oshirish kurslari ishlab chiqilib, joriy etildi. Bu kurslar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: “Davlat xizmatiga kirish”, “Davlat fuqarolik xizmatchisining etikasi” va “Iqtisodiy bilimlarning asoslari”. So‘nggi olti oy davomida ushbu kurslarni 7 441 nafar davlat xizmatchisi muvaffaqiyatli tamomlab, o‘z kompetensiyalarini oshirdi va tegishli sertifikatlarga ega bo‘ldi.

O‘zbekistonda davlat xizmatchilari kompetensiyasini rivojlantirishning samarali modelini joriy etish davlat boshqaruvi tizimida islohotlarni yanada takomillashtirishga zamin yaratadi va eng avvalo, davlat xizmati sifati oshishini ta’minlaydi.

**Sarvar SAIDOV,**
**O‘zbekiston Respublikasi**
**Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini**
**rivojlantirish agentligi**
**mas’ul xodimi.**

**Bolalar oromgohlariga yo‘llanma olish axborot tizimi “FHDYOning yagona elektron arxivi” AT bilan integratsiya qilinadi.**

# ARMIYA – VATAN QUDRATI, YUKSAK G‘URUR, YURTGA SADOQAT TIMSOLI







1 **O‘TGAN 2024-YIL** zimmamizdagi muqaddas burchni bajarish borasida murakkab sinovlar va tajriba orttirish yili bo‘ldi. Mudofaa vazirligi qo‘shinlari shaxsiy tarkibi xalqimiz tinchligi va farovonligini ta’minlash, osoyishta hayotni himoya qilish bo‘yicha muhim vazifalarni sharaf bilan bajardi. Mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash maqsadida qo‘shinlarning jangovar shayligini, axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va vatanparvarlik ruhini oshirishga alohida e’tibor qaratildi, kasbiy mahoratni yanada kuchaytirishning yangi tizimi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishlarida davlatimiz rahbari qo‘ygan vazifalar, ya’ni zamonaviy operatsiyalarni rejalashtirish, qo‘shinlarni oqilona boshqarish, mavjud kuch va vositalarni samarali qo‘llash malakasini oshirish borasida barcha harbiy okruglarda qator tadbirlar o‘tkazildi. Qisqa muddatda armiyamiz zamonaviy talablarga mos ravishda isloh qilindi, yangi namunadagi qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan qayta ta’minlandi. Natijada boshqaruv organlari va qo‘shinlarning **operativ va jangovar tayyorgarligi darajasi 2 barobarga** oshdi. Qurolli Kuchlar va qo‘shin turlari o‘rtasida hamkorlik mustahkamlandi.

Dunyoda jangovar harakatlar dinamikasi oshib borayotgan va yangi usullar paydo bo‘layotgan sharoitda Mudofaa vazirligi tasarrufidagi **20 dan ortiq** poligonlar xalqaro talablarga mos ravishda jihozlandi, bo‘linmalar amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish va zamonaviy jangovar harakatlarda qo‘llanilayotgan yangi taktik usul va uslublarni amalda o‘zlashtirishi uchun barcha shart-sharoit yaratildi. Bular dunyoda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bir vaqtda, ehtimoliy tahdidlarga qarshi munosib zarba berishga tayyor bo‘lish, O‘zbekistonning tinch va barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida amalga oshirildi.

**QUROLLI KUCHLAR** tarkibidagi tuzilmalarning o‘zaro hamkorlikdagi istiqbolli faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularning tezkor va jangovar holatini takomillashtirish tadbirlarini o‘tkazish, dala sharoitida shaxsiy tarkibning nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va ruhiy tayyorgarligini oshirish maqsadida Mudofaa vazirligi tasarrufidagi **14 ta poligon negizida** Qurolli Kuchlar dala tayyorgarligi yagona markazlari tashkil etildi. O‘quv-moddiy bazalari yanada takomillashayotgan dala mashg‘ulotlari maydonlarida uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) mutaxassislarini uquvli tayyorlash maqsadida UUA va dronlarni boshqarish bo‘yicha o‘quv nuqtalari barpo etildi. Mudofaa vazirligi o‘quv markazlarida yil davomida **37 ta jangovar** mutaxassislik bo‘yicha jami **10 mingdan ortiq** harbiy xizmatchilar o‘qitildi.

Kindik qoni to‘kilgan muqaddas zamin himoyasida turgan mard va jasur yigitlar og‘ir va mashaqqatli, shu bilan birga, sharafli va mas’uliyatli sinovlarda toblanmoqda. Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida xizmat qilayotgan har bir askar, serjant va ofitserning individual tayyorgarlik darajasini hamda bo‘linma tarkibidagi harakatlarning natijadorligini o‘stirish, takomillashtirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qo‘shinlarda xorijiy armiyalarning ilg‘or tajribalari, zamonaviy qurolli to‘qnashuvlar tahlili va xulosalaridan kelib chiqib, shuningdek,



**Shuhrat XOLMUHAMEDOV, O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri, general-mayor.**

bo‘linmalarning tayyorgarlik darajasiga real baho bergan holda soha yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli tadbirlar bajarilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining professional serjantlar korpusi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** Farmoni ijrosi yuzasidan oddiy askar va serjantlar tarkibiga mansub shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish, harbiy intizomni mustahkamlash, jamoaviy jipslikni ta’minlash, serjantlar korpusi faoliyatini rivojlantirish maqsadida Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida alohida maqomga ega bo‘lgan bosh serjant va bosh serjant yordamchisi lavozimlari ta’sis etildi. Ushbu lavozimdagi harbiy xizmatchilar uchun birinchi serjant, shtab serjanti, master serjant va serjant-mayor harbiy unvonlari joriy etildi.

Mazkur lavozimlarga tayinlash uchun qo‘shinlardan **300 dan ortiq** nomzod serjantlar orasida saralash ishlari olib borildi hamda vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalangan, intellektual salohiyat va yuksak harbiy mahoratga, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan **serjantlar** saralab olindi. Bugungi kunda ular qo‘shinlardagi batalyon, brigada, okrug va vazirlik miqyosidagi bir qator tadbirlarda faol ishtirok etib kelishmoqda.

Dunyo tajribasini o‘rganish maqsadida o‘ndan ortiq davlatlar harbiy idoralari bilan hamkorlik doirasida bir qator tadbirlar o‘tkazildi. Seminar-treninglar, hamkorlik o‘quv mashqlari, malaka oshirish tadbirlari shular jumlasiga kiradi.

**2024-YIL DAVOMIDA** mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha xalqaro harbiy hamkorlik rejalari doirasida dunyoda sodir bo‘layotgan harbiy mojaro hamda urushlar tajribasini inobatga olgan holda o‘tkazilgan **30 dan ortiq** hamkorlikdagi tadbirlar zamonaviy harbiy tahdidlarning oldini olishga qaratildi. **Turkiya, Ozarbayjon, AQSH, Pokiston, Hindiston, Qozog‘iston, Buyuk Britaniya va fransiyalik hamkorlar** bilan o‘tkazilgan o‘quv-treninglar, taktik mashqlar, kurs mashg‘ulotlari harbiy xizmatchilarimiz kasbiy malakasini oshirish hamda barcha bo‘g‘indagi harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida jangni olib borish va boshqarish bo‘yicha tajriba almashish imkonini berdi.

Zamonaviy qurolli to‘qnashuvlarning tahlili va rivojlangan xorij armiyalarining ilg‘or tajribalaridan kelib chiqib, bir qator rahbariy hujjatlar yangi tahrirda ishlab chiqildi va qo‘shinlar faoliyatiga tatbiq etildi.

Qo‘shilma va bo‘linmalar uchun dala ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy shakli bo‘lgan taktik o‘quvlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda zamonaviy janglarda yangi qo‘llanilayotgan uchuvchisiz uchish apparatlarini qo‘llash, ularga qarshi kurashish, xandaq jangi, kichik komandirlarning mustaqil qaror qabul qilishi va boshqaruvchilik mahoratlarini oshirish, taktik va radio niqoblanishning yangi taktik harakatlari amalda o‘zlashtirilmoqda.

**YANGI O‘ZBEKISTONDA** mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lgan, vatanparvar yoshlarning kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Bugun yurtimizda hal qiluvchi kuch hisoblanayotgan yoshlar davlatimizning taraqqiy etishi va qudrati yuksalishida muhim rol o‘ynamoqda. Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning **“vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”** degan so‘zlari biz uchun dasturilamal bo‘lmoqda.

2024-yilda yoshlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat rahbarining ko‘rsatmalari bilan Mudofaa vazirligiga respublikamiz bo‘yicha **2 547 ta mahalladan 1 million nafar o‘smir** biriktirildi. Otaliqqa olingan yoshlar bilan ishlarni tashkil etish uchun hududiy shtablar tuzilib, **4 791 nafar** harbiy xizmatchi ular bilan uchrashib, muammolarini o‘rgandi. Xususan, alohida e’tiborga muhtoj va jinoyatchilikka moyil yoshlarga huquqiy yordam ko‘rsatilib, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ularning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashildi.

Yil mobaynida **“Armiya – vatanparvarlik va jasorat maktabi”** shiori ostida **56 marotaba** 10 kunlik **“Jasorat maktabi”** o‘quv yig‘ini o‘tkazildi. Unga uyushmagan, tarbiyasi og‘ir va profilaktik hisobda turuvchi jami **5 600 nafar** yosh qamrab olindi. Ular bilan o‘tkazilgan kasb mashg‘ulotlari, sport musobaqalari, psixologik treninglar, dam olish tadbirlari, shuningdek, hordiq chiqarishi, uxlashi, ovqatlanishi, mashqlari – barcha-barchasi qat’iy harbiy intizom asosida tashkillashtirilgani yoshlar ruhiyatiga ijobiy ta’sir etdi. Shuning barobarida ular guruh komandirlari bilan samimiy muloqotda bo‘lib, kelgusi rejalarini, istiqboldagi maqsadlarini belgilab oldilar.

Butun mamlakat bo‘ylab yoshlar bilan mahalla, harbiy qism va muassasalarda **“Mardlik va jasorat”** darslari, **harbiy-vatanparvarlik karvonlari, ochiq eshiklar kuni, “Mard askar – yoshlarga namuna!”** kabi mavzularda uchrashuv va suhbatlar o‘tkazildi. Ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma’naviyat soatlari, intellektual viktorinalar, harbiy-sport musobaqalari, buyuk ajdodlarimiz qahramonliklarini o‘rganishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, konsert dasturlari, kitobxonlik va adabiy-badiiy kechalar uyushtirildi. Bu tadbirlar ayni kunlarda ham **yangi O‘zbekiston yangi armiyasining 33 yilligi** doirasida bir qator davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda harbiy xizmatchilar va aholi o‘rtasida **“Xalq va armiya – bir tanu bir jon!”** shiori ostida davom etmoqda. Davlatimiz rahbari e’tirof qilganidek, armiya va xalqning faol hamkorligi natijasida Qurolli Kuchlarimiz tom ma’noda jamiyatning ajralmas qismiga, mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining ishonchli kafolatiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylanib bormoqda.

**VATAN HIMOYASI** va el-yurt tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlarning oila a’zolari, xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida nogironlik olgan harbiylar, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylari, shuningdek, Qurolli Kuchlar faxriylariga moddiy hamda ma’naviy yordam berish bilan bog‘liq xayriya tadbirlari o‘tkazilmoqda. Ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlar bilan o‘tkazilayotgan **“Mening qahramonim”** ma’naviy-ma’rifiy tadbirlari davomida Vatanimiz mustaqilligi himoyasi yo‘lida jon fido etgan harbiy xizmatchilarning jasorat va qahramonliklari yodga olinmoqda.

Harbiy sohadagi islohotlarning eng muhim amaliy natijasini armiyadagi axloqiy-ruhiy, ma’naviy muhitning butunlay sog‘lomlashganida, xalqimizning o‘z himoyachilariga bo‘lgan chuqur hurmat va ehtiromida ko‘rish mumkin. Harbiy xizmatdan mustahkam hayotiy qarashlarga ega bo‘lib qaytgan o‘g‘lonlarimiz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol qatnashishga har tomonlama tayyor ekanligini namoyon etmoqda.

**Bizning yurt tinchligi va mustaqilligini** himoya qilish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirayotgan barcha ishimiz **“Inson qadri uchun, inson baxti uchun!”** degan oliyjanob maqsadga yo‘naltirilgan. Bu yorug‘ olamda yagona va tengsiz bo‘lgan ona yurtimiz – O‘zbekistonimizni ulug‘lash, uni ko‘z qorachig‘idek asrash, sha’nu sharafini himoya qilish va yuksaltirish, shu oliy maqsad yo‘lida fido bo‘lib yashash bizning muqaddas insoniy burchimizdir.

Fursatdan foydalanib, muqaddas Vatanimiz himoyasida turgan askar, serjant, ofitserlarni, ularning ota-onalarini, mard va jasur askar – Vatan himoyachisi bo‘laman, deya katta hayotga qadam qo‘yayotgan vatanparvar yoshlarni Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bilan chin qalbimdan tabriklayman.

**2024-yil davomida Mudofaa vazirligi mutaxassislari turli xalqaro harbiy musobaqalarda qatnashib, faxrli o‘rinlarni egallashdi. Xususan:**

- **Pokistonda VII xalqaro “Jamoa ruhi” musobaqasida 1-o‘rin;**
- **Rossiyada “Sayan yurishi” musobaqasida 3-o‘rin;**
- **Turkiyada “Eng ilg‘or mergan” musobaqasida 1-o‘rin;**
- **Harbiy-kasbiy tayyorgarlik xalqaro olimpiadasida 1-o‘rin;**
- **Janubiy Koreyada “Xalqaro ilmiy jangovar tayyorgarlik” musobaqasida 1-o‘rin;**
- **Janubiy Koreyada I xalqaro merganlar musobaqasida 2-o‘rin;**
- **Buyuk Britaniyada “Kembriya patruli” musobaqasida 2-o‘rin;**
- **MDHga a’zo mamlakatlar armiyalari o‘rtasida “O‘q otish sporti” musobaqasida 1-o‘rin;**
- **MDHga a’zo mamlakatlar armiyalari o‘rtasida “Harbiy sport kompleksi ko‘pkurashi” musobaqasida 2-o‘rin.**

**Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlarining 22 nafar harbiy sportchisi dunyoning eng nufuzli musobaqasi hisoblangan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida mamlakatimiz sport terma jamoalari tarkibida 9 ta sport turi bo‘yicha ishtirok etdi. Olimpiya o‘yinlarining yakuniga ko‘ra Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari tomonidan 2 ta oltin, 1 ta kumush medallar qo‘lga kiritildi. Paralimpiya o‘yinlarida ham Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari bir oltin va bir kumush medallar sohiblari bo‘ldi.**



---

YANGILIKLAR xabarlar

TAFSILOTLAR

## Qahramonlar xotirasi mangu barhayot!

*Bugungi tinch kunlarimiz sababchilari,mardlik va jasorat timsoli bo‘lgan qahramonlarimizning xotirasini yod etish xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi.*



Sharqiy harbiy okrug qo‘shinlari harbiy xizmatchilari ham O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yurtimiz sarhadlarini mardonavor qo‘riqlab, jonini fido etgan qahramonlar oila a’zolari, urush qatnashchilari hamda faxriylar holidan xabar olishmoqda.

Jumladan, harbiy xizmatchilar yurt uchun jonini fido qilgan qahramon, serjant Dilshod Asanovning xonadonida bo‘ldi. Samimiy suhbat chog‘ida harbiy xizmatchilar va oila a’zolari qahramonning bolalik damlarini, faoliyati va kasbini qanchalar sevganini esga olishdi.

O‘tkazilayotgan tadbirlar davomida Vatan ozodligi yo‘lida mardlarcha halok bo‘lgan harbiylar oilalariga Mudofaa vazirligi tomonidan ajratilgan bayram sovg‘alari topshirilyapti.

## Ommaviy yugurish musobaqasi

*“Yangi O‘zbekiston” bog‘ida “Men g‘olib RUN” harbiy-vatanparvarlik ommaviy yugurish musobaqasi bo‘lib o‘tdi.*




Bayram arafasida tashkil etilgan musobaqa poytaxtimiz aholisi uchun ham unutilmas shukuh bag‘ishladi. Ommaviy sport tadbirida mingdan ortiq kuch tuzilmalari xodimlari, oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlari, professional sportchilar hamda havaskorlar qatnashdi.

Musobaqa nizomiga ko‘ra kuch tuzilmalari jamoalari jamoaviy hamda yakkalik yo‘nalishlarida o‘zaro bellashdi. Harbiy oliy ta’lim muassasalari kursantlari o‘rtasida ham xuddi shu ikki yo‘nalishda g‘olib va sovrindorlar nomlari aniqlandi. Harbiy xizmatchilar 3 va 10 kilometrlik masofada startga chiqib, harbiy oliy ta’lim muassasalari sharafini oltita, yettita jamoa esa kuch tuzilmalari sharafini himoya qildi.

Bellashuvlar yakuniga ko‘ra g‘oliblar rag‘batlantirildi.

## «Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi»

*Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi “Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi” davlat unitar korxonasi hamda Mudofaa vazirligi hamkorligida “Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi” turkumi doirasida suratga olingan hujjatli filmlar premyerasi muxlislar e’tiboriga havola etildi.*




Xususan, ayni kunlarda ekran yuzini ko‘rgan “Zamonaviy harbiy institut”, “Ulug‘vor qalb bilan qutlug‘ saflarga”, “Yangi O‘zbekiston lochinlari” hujjatli filmlari mamlakatimizdagi uchta oliy harbiy ta’lim muassasasi faoliyatidan hikoya qiladi. Shuning uchun mazkur uchta hujjatli filmning dastlabki aksariyat tomoshabinlari ham Vatan himoyachilaridan iborat bo‘ldi.

Milliy kino san’ati saroyida bo‘lib o‘tgan premyera namoyishi jarayonida mutaxassislar ijodkorlar ishiga baho berdi. Kinematografiya agentligi va Mudofaa vazirligining esdalik sovg‘alari topshirildi.

**“Xalq so‘zi”.**

---

**Toshkent fotosuratlar uyida Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan “Xalq va armiya – bir tanu bir jon!” mavzuida ijodiy asarlar ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-142. 12 830 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Mamirov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 20.50 Topshirildi — 23.55 1 2 3 4 5 6